

“Bor” tariflar tizimi

Narxlash

Tarif rejasining nomi	Bor 45	Bor 50	Bor 60	Bor 80	Bor 110	Bor 160
Oylik abonent to'lovi	45 000 so'm	50 000 so'm	60 000 so'm	80 000 so'm	110 000 so'm	160 000 so'm
Oylik internet-trafik limiti	45 GB	50 GB	60 GB	85 GB	200 GB	350 GB
5G tarmog'idagi oylik internet-trafik	-	-	25 GB	50 GB	100 GB	150 GB
Oylik CHEKSIZ internet-trafik	OVVA TV	OVVA TV	OVVA TV	OVVA TV	OVVA TV	OVVA TV MAX
Oylik CHEKSIZ internet-trafik	-	-	-	Yandex Plus	Yandex Plus	Yandex Plus
Tungi internet-trafik	-	-	cheksiz	cheksiz	cheksiz	cheksiz

Dam olish kunlariga internet-trafik (shanba, yakshanba)	-	-	-	cheksiz	cheksiz	cheksiz
MDH mamlakatlarida rouming uchun trafik***	500 MB	500 MB	1 GB	2 GB	2 GB	2 GB
Dunyo bo'ylab rouming uchun trafik****					500 MB	1 GB
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi daqiqalarning oylik limiti**	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**	Cheksiz**
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMSlarning oylik limiti	1000	1000	1 500	2 000	2 500	3 000
Limitlarni tekshirish	*100# – internet-trafik MBlari va SMSlar					

Yo'nalishlar bo'yicha narxlash:		
	Bor 45, Bor 50	Bor 60, Bor 80, Bor 110, Bor 160
Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo'ng'iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 so'm	25 so'm
1 MB internet narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 so'm	25 so'm
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMS narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 so'm	25 so'm
Xalqaro SMSlar	1 500 so'm	

Tarifga o'tish: *120#

Limitlarni tekshirish: *100# – daqiqalar, SMSlar va internet-trafik MBlari.

**Texnik cheklanma – oyiga 45000 daqiqa.

Qo'shimcha ma'lumot

1. Tarif rejaları yangi ulanishlar hamda o'tishlar uchun ochiq.

2. Oylik abonent to'lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- Abonentning tarif rejasiga ulanish/o'tish sanasi oylik davrda oylik abonent to'lovining yechilish sanasi hisoblanadi.

- Tarif rejasiga yangi ulanishda/o'tishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablag' bo'lsa, oylik abonent to'lovi va limitlar to'liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.

- Hisob manfiy holatda bo'lsa yoki unda tarif bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilishi uchun mablag' yetarli bo'lmasa, u holda abonent to'lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.

- Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo'lgan davrda (yechilish vaqti qat'iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag' bo'lishi kerak.

– Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi (agar oylik abonent to'lovining yechilishi 31-sanaga belgilangan bo'lsa, keyingi oy esa 30/29/28 kunlik bo'lsa, u holda navbatdagi oylik abonent to'lovi 30-sanada, yoki fevral oyining 28/29-sanasi yechiladi. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi o'z vaqtida to'lansa (raqam uzluksiz Faol holatda tursa), abonent to'lovining navbatdagi yechilishi 31-sanada bo'ladi).

- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmagunicha abonent to'lovi yechilmaydi.

- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi **darhol** yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi so'nggi marta **samarali yechilgan kundan** boshlab bir oylik oraliqda amalga oshadi.

3. 5G tarmog'idagi oylik internet-trafikning taqdim etilish shartlari:

- Tarif rejasi doirasida berilgan 5G internet-trafik hajmi 5G tarmog'ida amal qiladi va sarflanadi;
- 5G hajmi to'liq sarflab tugatilsa, 5G tarmog'idagi internet tarif rejasining amaldagi shartlariga muvofiq narxlanadi;
- Tarif rejasini almashtirganda 5G internet-trafik hajmi bekor qilinadi. "Bor" tariflar tizimi ichidagi boshqa tarifga ("Bor 60", "Bor 80", "Bor 110", "Bor 160") o'tishda 5G internet-trafik hajmi bekor qilinadi va tarif rejasiga mos yangi internet-trafik hajmi belgilanadi;
- Internet-trafik shartlari roumingdagi abonentlarga tatbiq etilmaydi;
- Qo'shimcha 5G internet-trafik hajmi taqdim etilishi munosabati bilan, "5G" xizmati "Bor 60", "Bor 80", "Bor 110", "Bor 160" tariflarida avtomatik tarzda taqdim qilinadi.
- 5G internet-trafik hajmi raqam Bloklangan holatda amal qilmaydi;
- Smartfonning yoki boshqa qurilmalarning ulanish nuqtasi orqali internetni tarqatishda, faqat internetdagi so'rovlar katta hajmdagi ma'lumot almashishni hamda internetning yuqori tezligini talab qilgan hollardagina, berilgan 5G internet hajmidan foydalanish mumkin bo'ladi.
- Proksi-serverlar yoki VPN orqali ulanishda, internet-trafik berilgan 5G hajmi doirasida sarflanmaydi.

4. ***Roumingdagi internet-trafik quyidagi mobil operatorlar tarmoqlarida amal qiladi: Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston hududida MegaFon, Qozog'iston Respublikasida Tele2 hamda Qirg'izistonda MegaCom.

- ****Dunyo bo'ylab roumingdagi internet-trafik ushbu sahifada ko'rsatilgan mamlakatlarda amal qiladi.
- Tarif doirasida taqdim etiluvchi roumingdagi internet-trafik shartlari kirish nuqtasi (Hotspot) orqali internet-trafikni boshqa qurilmalarga tarqatishda amal qilmaydi.

5. "OVVA TV" uchun cheksiz internet-trafik shartlari:

- "Bor" tarif rejalariga o'tishda, standart holatga ko'ra "OVVA TV" xizmati doirasida quyidagi obunalardan foydalanish imkoni taqdim etiladi:

Tarif rejasi	Tarif rejasi ushbu obunani o'z ichiga oladi
Bor 45, Bor 50, Bor 60, Bor 80, Bor 110	"OVVA TV" – UzMTRK kanallarini cheksiz tomosha qilish imkoni (O'zbekiston davlat telekanallarini) cheksiz tomosha qilish imkoni
Bor 160	"OVVA TV MAX" obunasi

- Agar tarif bo'yicha abonent to'lovi yechilmagan bo'lsa, u holda "OVVA TV" xizmati doirasidagi tegishli TV-kanallarni tomosha qilish imkoni cheklanadi.
- "OVVA TV" xizmati faqat O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladi.
- "OVVA TV" xizmati Ucell uyali aloqa tarmog'i interneti orqali ham, istalgan boshqa operator yoki internet-provayder tarmog'ida ham, shuningdek istalgan Wi-Fi tarmog'i orqali ham ishlaydi. Boshqa operator yoki internet-provayderning internet-trafigi uchun to'lov ularning shartlariga muvofiq hisoblanadi.
- "OVVA TV" xizmatidan proksi-server, VPN yoki uchinchi sayt orqali foydalanishda, trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plam balansidan sarflanadi.
- Xizmat doirasidagi TV-kanallarni onlayn tomosha qilish uchun internet tarmog'iga ulanish kerak bo'ladi.
- Standart holatga ko'ra "OVVA TV" xizmati doirasidagi tegishli TV-kanallarni tomosha qilish imkoni taqdim etilishi munosabati bilan, "Bor" tariflarida quyidagi TV-kanallarni ko'rish imkonini beruvchi pullik obunalarni alohida xarid qilish cheklangan:

Tarif rejasi	Ulanib bo'lmaydigan pullik obunalar
Bor 160	"OVVA TV", "OVVA TV +", "OVVA TV MAX" obunalarining barcha turlari

- Tarif bo'yicha abonent to'lovi to'langan bo'lsa, TV-kanallarni onlayn tomosha qilish imkoni Ucell va OVVA ilovalarida, shuningdek ovva.uz saytida taqdim etiladi.
- "OVVA TV" xizmatining taqdim etilish shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin.
- "Bor 160" tarif rejasidagi abonent o'z tarifini boshqa tarif rejalariga almashtirganida, "Bor 160" tarif rejasi doirasida taqdim etilgan "OVVA TV Max" obunasi bekor qilinadi.
- "OVVA TV" tarkibiga kiruvchi xizmatlar doirasida taqdim etiluvchi cheksiz internet-trafik shartlari smartfon yoki boshqa qurilmalarning kirish nuqtasi (Hotspot) orqali internet-trafikni boshqa qurilmalarga tarqatishda amal qilmaydi.

6. "Yandex Plus" — bu "Yandex Music", "Kinopoisk", "Yandex Books"ga yagona obuna, shuningdek "Yandex Go"da ballar shaklida keshbek.

"Yandex Plus" obunasini rasmiylashtirish:

Obunaning barcha afzalliklaridan foydalanish uchun "Yandex Plus"ni faollashtiring. Buning uchun:

- <https://plus.yandex.uz/ucell> havolasi orqali o'ting
- Telefon raqamini kiriting
- "Yandex ID" bilan avtorizatsiyadan o'ting

Shundan keyin darhol siz "Yandex Music", "Kinopoisk", "Yandex Books"dan foydalanish, shuningdek "Yandex Go"da "Plus" ballari shaklida keshbek olish imkoniga ega bo'lasiz.

Shartlar:

- "Yandex Plus" tarkibiga kiruvchi "Yandex Music", "Kinopoisk", "Yandex Books" xizmatlaridan foydalanish, shuningdek "Yandex Go"da "Plus" ballari shaklida keshbek olish imkoni "Bor 80", "Bor 110" hamda "Bor 160" tarif rejalarida, tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovi samarali yechilganida taqdim etiladi.
- "Yandex Plus" tarkibiga kiruvchi "Yandex Music", "Kinopoisk", "Yandex Books" xizmatlarida avtorizatsiyadan o'tishda, "Bor 80", "Bor 110" hamda "Bor 160" tarif rejalaridan biridagi abonent raqamiga bog'langan "Yandex ID"dan foydalanish lozim. Rasmiylashtirilgan obuna albatta plus.yandex.uz/ucell sahifasida faollashtirilgan bo'lishi kerak.
- Tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovi samarali yechilgan taqdirda, obuna belgilangan vaqtdan boshlab 30 kunlik amal qilish muddati bilan tayinlanadi. Agar shaxsiy hisobda abonent to'lovini to'lash uchun yetarli mablag' bo'lmasa, xizmatlar obunasi avtomatik tarzda to'lovni kutish holatiga o'tadi va abonent hisobida uning haqini to'lashga yetarli mablag' bo'lishi bilan avtomatik ravishda navbatdagi 30 kunga uzaytiriladi. Bunda oylik abonent to'lovi samarali yechilganida, obunaning amal qilish muddati uning so'nggi belgilangan vaqtdan o'rnatiladi.
- "Bor 80", "Bor 110" hamda "Bor 160" tarif rejalar doirasida, "Yandex Go", "Yandex Music", "Yandex Books" va "Kinopoisk" ilovalaridan foydalanganda internet-trafik tarifdagi amaldagi internet-to'plamlardan sarflanmaydi.
- "Yandex Go", "Yandex Music", "Yandex Books" va "Kinopoisk" ilovalaridan roumingda foydalanganda, internet-trafik roumingda hududiy narxlash shartlariga muvofiq narxlanadi.
- "Yandex Plus" tarkibiga kiruvchi xizmatlardan proksi-server, VPN yoki uchinchi sayt orqali foydalanganda, trafik tarif rejasi shartlariga ko'ra Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etilgan mavjud internet-to'plam balansidan yechiladi.
- Internet-trafik sarfining oldini olish uchun, xizmat faollashganidan keyin mobil ma'lumotlar almashinuvini o'chirib, internet-sessiyani to'xtatish, keyin uni qayta faollashtirish lozim.

- Abonentda “Yandex Plus” xizmatining bir nechta faol obunasi mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, abonent avval haqi abonentning bank kartasi orqali to‘lanadigan obunani faollashtirgan. Bunday holatda, haqi boshqa usullar bilan to‘lanadigan obuna “Yandex Plus” xizmatining saytida boshqariladi.
- “Bor 80”, “Bor 110” hamda “Bor 160” tarif rejalaridan biriga o‘tganda, alohida “Yandex Plus” (Ucell tarmog‘ida ulangan “Pullik obuna” va “90 kunga bepul obuna”) xizmati avtomatik o‘chiriladi, bunda “Yandex Plus” xizmati taqdim etilishining barcha shartlaridan toki o‘chirilgan obunaning amal qilish muddati tugashi vaqtigacha foydalanish mumkin bo‘ladi. Bunda “Yandex Go”, “Yandex Music”, “Yandex Books” va “Kinopoisk” ilovalaridan foydalanganda internet-trafik “Bor 80”, “Bor 110” hamda “Bor 160” tarif rejalarida narxlanmaydi. Agar abonent boshqa (“Bor 80”, “Bor 110” hamda “Bor 160” ro‘yxatiga kirmaydigan) tarif rejasiga o‘tsa, internet-trafik abonentning tarif rejasiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo‘nalishlar uchun taqdim etilgan mavjud internet-to‘plam balansidan yechiladi.
- Boshqa (“Bor 80”, “Bor 110” hamda “Bor 160” ro‘yxatiga kirmaydigan) tarif rejasiga o‘tilganida, “Yandex Plus” xizmati taqdim etilishining barcha shartlaridan toki o‘chirilgan obunaning amal qilish muddati tugashi vaqtigacha foydalanish mumkin bo‘ladi. Bunda “Yandex Go”, “Yandex Music”, “Yandex Books” va “Kinopoisk” ilovalaridan foydalanganda abonentning tarif rejasiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo‘nalishlar uchun taqdim etilgan mavjud internet-to‘plam balansidan yechiladi.
- “Bor” tariflar tizimi (“Bor 80”, “Bor 110” hamda “Bor 160”) ichida boshqa tarifga o‘tishda, yoki “Restart” xizmatidan (“Bor 80”, “Bor 110” hamda “Bor 160” tarif rejalarida) foydalanishda, “Yandex Plus” doirasiga kiruvchi xizmatlardan foydalanish imkoni bekor qilinadi va tarif rejasiga muvofiq yangi foydalanish imkonlari taqdim etiladi.
- “Bor 80”, “Bor 110” hamda “Bor 160” tarif rejalarida alohida “Yandex Plus” (“Pullik obuna” va “90 kunga bepul obuna”) xizmatiga ulanish imkoni yo‘q.
- “Yandex Plus” obunasi doirasida “Kinopoisk” xizmatida katalogdagi kontentning barchasidan foydalanish imkoni mavjud emas.
- Obuna foydalanuvchilari uchun “Yandex Books” xizmatidan foydalanish imkoni xizmat qoidalariga muvofiq taqdim etiladi.
- “Yandex Go”: obuna doirasida foydalanuvchilarga ilova yordamida buyurtma qilingan “Komfort” va “Biznes” tariflari bo‘yicha safarlarga ballar shaklida keshbek taqdim etiladi.
- “Yandex Plus” obunasining batafsil shartlari: “Yandex Plus” obunasi shartlari (https://yandex.ru/legal/yandex_plus_conditions/)
- Raqamni qayta rasmiylashtirganda, albatta plus.yandex.uz/ucell sahifasida obuna faollashtirilgan bo‘lishi kerak.
- Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma‘lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda internet-trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo‘nalishlar uchun taqdim etilgan mavjud internet-to‘plam balansidan yechiladi.
- “Yandex Plus” tarkibiga kiruvchi xizmatlar doirasida taqdim etiluvchi cheksiz internet-trafik shartlari smartfon yoki boshqa qurilmalarning kirish nuqtasi (Hotspot) orqali internet-trafikni boshqa qurilmalarga tarqatishda amal qilmaydi.
- **“Yandex Plus” yordam xizmati: +998 78-333-87-91**

7. Cheksiz tungi internet hamda dam olish kunlari uchun cheksiz internetning taqdim etilish shartlari.

- Cheksiz tungi trafik soat 01:00 dan 06:59:59 gacha amal qiladi. Xizmatning to‘g‘ri ishlashi uchun soat 01:00 da va 07:00 da internetni uzib sessiyani to‘xtatish va shundan keyin internetni qayta ulab sessiyani davom ettirish lozim.
- Dam olish kunlari uchun cheksiz internet faqat shanba va yakshanbada amal qiladi.
- Tarif doirasida taqdim etiluvchi cheksiz internet-trafik shartlari internet-trafikni smartfon yoki boshqa qurilmalarning kirish nuqtasi (Hotspot) orqali tarqatishda amal qilmaydi.

8. Bloklanish shartlari:

- **JONLI NOL: endi hattoki nol hisob holatida ham Siz barcha aloqa xizmatlaridan foydalana olasiz!**

- raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasi bo‘yicha oylik abonent to‘lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag‘ bo‘lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo‘shimcha xizmatlar ulangan bo‘lsa bloklanadi;

- Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi;

Agar abonent hisobida boshqa ochiq tarif rejasining abonent to'lovini + o'tish qiymatini (agar tarif rejasiga o'tish pullik bo'lsa) yechishga yetarli mablag' bo'lsa, tarif rejasini ruxsat etilgan barcha usullar orqali almashtirish mumkin.

- Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan "Oylik internet-to'plamlar" limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa).

- Bloklangan holatda bo'lishning umumiy shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin
(AT samarali to'langan holatda)

9. Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Joriy davrda belgilangan oylik limitlarning qoldiqlari keyingi davrga o'tkazib berilmaydi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini Ucell ilovasi yoki *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.

- Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.

- Tarif rejasi bo'yicha barcha yo'nalishlar uchun berilgan oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishg'a tushirish uchun havolali SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi:

- Tarif bo'yicha limitlarni yangilash ("Restart" xizmatini faollashtirish);
- Internet-to'plam xarid qilish;
- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish
- Tarif rejasini almashtirish

Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish" opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor beramiz:

- "Bor" tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, agar abonent yuqoriroq tarifga o'tsa, u holda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar (cheksiz daqiqalar, rouming uchun trafik, dam olish kunlari uchun cheksiz trafik hamda tungi cheksiz internetdan tashqari) yangilariga qo'shiladi va toki sarflab tugatilguniga qadar yoki ularning oldingi tarif rejasiga ko'ra amal qilish muddati tugaguniga qadar ulardan foydalanish mumkin bo'ladi.

- "Bor" tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, agar abonent quyiroq tarifga o'tsa, u holda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

- Boshqa tarif rejalaridan "Bor" tariflar tizimi tarif rejalariga o'tilsa, oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida, tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yoki Ucell mobil ilovasi yordamida albatta oldindan tekshirib olishni tavsiya etamiz. Daqiqalar, SMSlar va MBlar limitlari belgilanganiga qadar narxlash tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.

10. Tarif rejalar shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar "O'zbektelekom" AKning axborot-ma'lumot xizmatlariga, kontent-provayderlarning axborot-ko'ngilochar xizmatlariga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

10.1 "O'zbektelekom" AK xizmatlari. Narxlash ushbu havoladagi jadvalda ko'rsatilgan narxlar asosida, har bir ulanish uchun amalga oshiriladi: https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom, (limitlar bo'lsa, limitlar sarflanmaydi. Tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqari narx bo'yicha abonent balansidan yechiladi). Qo'ng'iroqning bir daqiqasi sizning tarif rejangizga muvofiq daqiqalab, ulanishning 1-soniyasidan boshlab, to'liq daqiqagacha yaxlitlanib narxlanadi. Abonentlar bu yerda tanishishlari mumkin

https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom

11. Tarif rejalar doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

12. "Bor" tizimi tarif rejalar abonentlari uchun "Raqamni saqlab qolish", **Yangi Oylik internet-to'plamlar**, TAS-IX uchun internet-to'plamlar, "Al Chiroq" aksiyasi (faqat MB va SMS to'plamlari), "Trafik+" **amal qiladi**.

13. "Bor" tizimi tarif rejalar abonentlari uchun "Qulay daqiqalar", "Tarmoq ichida qulay" hamda "O'zbekiston bo'yicha qulay" to'plamlari, Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, "Kunlik SMS-to'plamlar", "Oylik 4G internet-to'plamlar" (shuningdek, "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi doirasidagi shu to'plamlar), "Tungi internet", "Tungi internet-to'plamlar", "Tunda 4Gni sinab ko'ring", "Internet Mega BOOM", "Buyurtma to'plam", "Soatbay internet" to'plamlari va "Maksimal internet", "Megabaytlar qaytadi" xizmatlari, "Qadrdonlar" hamda "U+" sodiqlik dasturlari **amal qilmaydi**.

14. "Bor" tariflar tizimiga o'tganda, unda ruxsat etilmagan xizmatlar va to'plamlar o'chiriladi (Oylik internet-to'plamlardan tashqari), ammo limitlar qoldiqlari va xizmatlarning amal qilish muddati ularning shartlariga muvofiq saqlanib qoladi.

15. 31.12.2026-y.gacha "Bor" tizimi tarif rejalariga yangi ulanishda yoki boshqa tariflardan o'tishda, "Sizga qo'ng'iroq qilishdi" xizmati avtomatik tarzda bepul asosda taqdim etiladi.

16. "OVVA TV" taqdim etilish shartlari: Trafikni sarflamaydi. Boshqa tarif rejalariga o'tishda, "OVVA TV" opsiyasi bekor qilinadi.

17. "Bor" tariflar tizimi ichidagi o'tishlarda, ko'rsatilgan shartlarga ega bo'lgan tarif rejalar doirasida oldin olingan O'zbekiston bo'yicha cheksiz daqiqalar amal qilmaydi.

18. Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga [mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi](#) va [4G tarmog'ining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot](#) bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.

19. Frod ulanishlarning oldini olish maqsadida, agar ulanishdan keyingi 30 kun davomida chiquvchi trafik 0 ga yaqin bo'lsa, Kompaniya abonent bilan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

"Restart" xizmatining shartlari

1. "Restart" xizmati mobil ilova yoki *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.

2. "Restart" xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.

3. "Restart" xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. "Restart" xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.

4. "Restart" xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limit belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.

5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. "Restart" xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.

6. "Restart" xizmati samarali faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar (SMS, MB) qoldiqlari bekor qilinadi.

7. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida "Restart" xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.
8. Restart" xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.

Eslatma:

Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma'lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo'nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to'plamdan sarflanadi.